



O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN  
VA INNOVATSİYALAR  
VAZIRLIGI



TOSHKENT DAVLAT  
SHARQSHUNOSLIK  
ÜNIVERSİTETİ



# MARKAZIY OSIYO XALQLARINING ETNO-TARIXIY JARAYONLARI

*"Markaziy Osiyoda etnoturizmni rivojlantirish  
imkoniyatlari" ga bag'ishlanadi*

**MAVZUSIDAGI XALQARO  
ILMIY KONFERENSIYA**

**MATERİALLARI TO'PLAMI**

**TOSHKENT - 2024**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK  
UNIVERSITETI**

**MARKAZIY OSIYO XALQLARINING  
ETNO-TARIXIY JARAYONLARI**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
materiallari**

**“Markaziy Osiyoda etnoturizmni rivojlantirish  
imkoniyatlari”ga bag‘ishlanadi**

**2024-yil 25-oktyabr**

**TOSHKENT– 2024**

UO‘K: 94(575):314.122.6

KBK: 63.3(5):63.5

M-26

**Markaziy Osiyo xalqlarining etno-tarixiy jarayonlari** [Matn] / prof. A.X. Doniyorovning umumiy tahriri ostida. – T.: “Best-publish” nashriyoti, 2024. – 320 b.

Mazkur to‘plamda “Markaziy Osiyo xalqlarining etno-tarixiy jarayonlari” (“Markaziy Osiyoda etnoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari”ga bag‘ishlanadi) mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari jamlangan. Unda Markaziy Osiyo xalqlarining boy madaniy merosi va urf-odatlarini saqlash va ularni asrash etnoturizmni rivojlantirish asoslari, Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud tabiiy manzaralar va qadimiylar joylarning etnoturizmni rivojlantirishdagi ahamiyati, Markaziy Osiyo xalqlarining mahalliy taomlari va mehmondo‘stlik an’analari masalasi, Markaziy Osiyo xalqlari boy madaniy va tarixiy merosini global miqyosda targ‘ib qilishga bag‘ishlangan maqolalar joy olgan. Maqolalar mualliflari sohaning yetakchi mutaxassislari va yosh tadqiqotchilar.

**Mas’ul muharrir:** t.f.d., professor A.X.Doniyorov

**Nashrga tayyorchilar:** B.A.Odilov, B.I. Zokirov

Konferensiya materiallari Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Ilmiy kengashida muhokama etildi va nashrga tavsiya qilindi (26.12.2024-yil, 4-sonli bayonnomma).

ISBN: 978-9910-9076-2-3

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024

© “Best-publish” nashriyoti, 2024

**II SHO'BA**  
**MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA MAVJUD TABIIY**  
**MANZARALAR VA QADIMIY JOYLARNING ETNOTURIZMNI**  
**RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI**

**I.V. SAVITSKIY NOMIDAGI QORAQALPOG'ISTON DAVLAT**  
**SAN'AT MUZEYINING MAMLAKATIMIZ ETNOTURIZMIDAGI**  
**AHAMİYATI BORASIDA**

**Doniyorov A.X.**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori  
tarix fanlari doktori,*

**Isaqov R.O'.**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
tayanch doktorant*

*E-mail manzili: kvazarlar1998@gmail.com*

**Kalit so'zlar:** I.V. Savitskiy muzeyi, Qoraqalpog'iston san'ati, etnoturizm, milliy madaniy meros, sovet avangardi, Qoraqalpoq xalq san'ati, O'zbekiston madaniyati, amaliy san'at, Nukus muzeyi, xalqaro madaniy aloqalar

**Annotatsiya:** I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi O'zbekistonning etnoturizm sohasida muhim o'rinnegallaydi. Muzeyda Qoraqalpoq xalqining boy madaniy merosi, milliy san'ati va tarixiy eksponatlari namoyish etilib, etnik o'ziga xoslikni keng targ'ib etadi. Savitskiy muzeyining kolleksiyalari orasida Sovet avangardi asarlari va Qoraqalpoq xalqining milliy kiyimlari, zargarlik buyumlari, amaliy san'at namunalari mavjud bo'lib, ular xalqning tarixi va madaniyatini aks ettiradi. Muzey milliy merosni saqlash va targ'ib qilish bilan birga, O'zbekistonga kelgan sayyoohlar uchun jozibali madaniy obida sifatida xizmat qiladi. Ushbu maqola Savitskiy muzeyining etnoturizmdagi o'rmini va xalqaro ahamiyatini yoritadi.

---

**THE IMPORTANCE OF THE I.V.SAVITSKIY STATE ART  
MUSEUM OF KARAKALPAKSTAN IN THE ETHNOTOURISM  
OF OUR COUNTRY**

**Doniyorov A.Kh.**

*Tashkent State University of Oriental Studies  
doctor of history, professor*

**Isaqov R.U.**

*Tashkent State University of Oriental Studies*

## **PhD student**

E-mail address: kvazarlar1998@gmail.com

**Key words:** I.V.Savitsky museum, Karakalpakstan art, ethnotourism, national cultural heritage, soviet avant-garde, Karakalpak folk art, Uzbekistan culture, applied arts, Nukus museum, international cultural relations

**Abstract:** The I.V. Savitsky State Museum of Arts of Karakalpakstan plays a significant role in Uzbekistan's ethnotourism. The museum exhibits the rich cultural heritage, national art, and historical artifacts of the Karakalpak people, promoting ethnic identity. The Savitsky Museum's collection includes Soviet avant-garde works, as well as Karakalpak national costumes, jewelry, and applied arts, reflecting the people's history and culture. The museum not only preserves and promotes national heritage but also serves as a major cultural attraction for tourists visiting Uzbekistan. This article explores the museum's importance in ethnotourism and its international significance.

---

Etnoturizm sohasida muzeylarning ahamiyati juda katta, chunki ular milliy madaniyat va tarixni o'rganish, saqlash va ommalashtirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Muzeylar turli xalqlarning urf-odatlari, hayoti, san'ati, tarixi va an'analarini namoyish etib, sayyoohlarga xalqning o'ziga xosligini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, muzeylar xalqning boy madaniy merosini saqlab, kelajak avlodlarga yetkazadi. Ular xalqning tarixiy voqealari, urf-odatlari, hunarmandchilik namunalari, milliy san'ati va boshqa qadriyatlarini asrashda katta rol o'ynaydi hamda sayyoohlarga milliy madaniyatni to'g'ridan-to'g'ri ko'rish va tushunish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, millatlar o'rtasidagi madaniy almashinuvni rivojlantirib, tushunish va hurmat hissini kuchaytiradi. Muzeylar ko'pincha etnoturizmning diqqatga sazovor maskanlari hisoblanadi. Xalqning turmush tarzi va madaniyati haqida batafsil ma'lumot beruvchi eksponatlar sayyohlarda qiziqish uyg'otadi va ularga yangi tajribalar taqdim etadi.

Shuningdek, muzeylar orqali sayyoohlar jalb qilinishi natijasida mahalliy iqtisodiyot rivojlanadi. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar mahalliy mehmonxonalar, restoranlar va qo'l mehnatlari do'konlariga qiziqish bildiradi, bu esa iqtisodiy o'sishga hissa qo'shami.

Bundan tashqari, etnoturizmda muzeylar ta'limiy funksiyani ham bajaradi. Ular sayyoohlarga yangi bilimlarni taqdim etib, xalqning tarixi va madaniyati haqida chuqurroq tushunchalar beradi. Shuning uchun ham muzeylar mamlakat etnoturizmida turli xalqlar madaniyati va an'analarini bilan yaqindan tanishish, o'tmish merosini anglash va saqlashda katta

ahamiyat kasb etadi. Muzeylar sayohat qilayotgan insonlarga chuqurroq madaniy tajriba berib, ularni o'sha yurtning haqiqiy ruhi bilan tanishtiradi.

O'zbekiston hududida yurtimiz etnografik qiyoqasini aks ettiruvchi bir necha muhim muzeylar mavjud bo'lib, ular xalqning boy madaniy merosi, urf-odatlari va tarixi haqida chuqur ma'lumot beradi. Masalan, O'zbekiston Davlat san'at muzeyi (Toshkent), Buxoro Davlat san'at va tarix muzeyi (Buxoro), Samarqand Davlat birlashgan tarixiy-madaniy muzeyi (Samarqand), Xiva Ichon-qa'la muzey-qo'riqxonasi (Xiva), Namangan viloyat tarixiy o'lakashunoslik muzeyi (Namangan), I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi (Nukus) va boshqalar.

Bular ichida I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi alohida ahamiyatga molik muzey hisoblanadi. Bu muzey faqat Sovet avangardi bilan emas, balki Qoraqalpoq xalqining madaniyati, milliy kiyimlari, zargarlik buyumlari va amaliy san'at na'munalari bilan ham mashhur.

I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi mamlakatimizning madaniy merosini saqlash va keng jamoatchilikka tanishtirishda muhim o'rinni tutadi. Bu muzey nafaqat boy san'at asarlari kolleksiysi bilan, balki Qoraqalpog'iston hududidagi tarixiy va etnografik boyliklarni o'z ichiga olgan nodir eksponatlar bilan ham diqqatga sazovor. Etnoturizmning rivojlanishi muzeyning ahamiyatini yanada oshiradi, chunki u milliy madaniyatimizni va xalq ijodiy merosini nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda targ'ib qilishda alohida rol o'yndaydi. Bu muzey orqali tashrif buyuruvchilar O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boy san'at va madaniy an'analarini yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa etnoturizmni rivojlantirish va milliy o'zlikni anglashda muhim vosita hisoblanadi.

I.V. Savitskiy ilk bor talabalik yillarda Samarqandga keladi. Sharq xalqlarining boy madaniyati bilan tanishish, R.Falk, K.Istomin, N.Ulyanov kabi rassomlar ishiga bo'lgan qiziqish uning keyingi taqdirini belgilab berdi. 1950-1956 yillarda Savitskiy T.A.Jdankoning taklifiga binoan atoqli olim S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi ishida qatnashdi. Bu ekspeditsiya uning hayotida katta ahamiyat kasb etadi. (Z., 2019, № 3.).

S.P.Tolstov rahbarligida yuqorida tilga olingan Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi nafaqat o'zining kashfiyotlari, balki ishtirokchilarning xotiralari bilan ham qimmatli bo'lgan eng muhim tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Masalan, arxeolog I.A.Arjantseva o'zining "Tarixi kashfiyotlar va tadqiqotlar. Etnografik Albom" kitobida T.A.Jdankoning xotiralaridan iqtibos keltiradi: "Fotograf va rassom I.V.Savitskiy qoraqalpoqlarning xalq amaliy san'ati bilan shunchalik qiziqib, shu hududga mehr qo'ydiki, u hatto Moskvani Qoraqalpoqga "almashtirdi", yashash uchun u yerga ko'chib o'tdi

va Nukusda dekorativ-amaliy san'at bo'limiga ega ajoyib san'at muzeyiga asos soldi. Uning mehnati munosib baholanib, Respublikada xizmat ko'rsatgan fan arbobi unvoniga sazovor bo'ldi. Keyin Igor Savitskiy olti mavsum ketma-ket ekspeditsiya otryadlarida ishladi va ular uning butun kelajak hayotini aniqladilar. Hatto uzoq yillar Nukus muzeyi direktori bo'lib, unutilmas va qimmatli qazishma joylarini yana bir bor ko'rish, ma'muriy ishlardan biroz dam olish, ruhini orom olish maqsadida ancha keyinroq bu yerga qaytdi". (И.А., 2016).

Ekspeditsiyada ishtirok etish rassomda qoraqalpoqlarning dekorativ-amaliy san'ati va o'zining etnografik kolleksiyasini yaratishga qiziqish uyg'otadi. 1956-yilda I.V.Savitskiy nihoyat Moskvani tark etib, O'zbekiston SSRga ko'chib o'tishga qaror qiladi. Yevropa an'analariga yot bo'lган chekka hududga ko'chib o'tish katta qiyinchilik tug'dirdi. San'atkorlar va olimlar orasida hamfikrlar bilan uchrashish uning imkoniyatlarini asta-sekin kengaytiradi. Yosh olim va bo'lajak siyosatchi M.K.Nurmuhamedov<sup>79</sup> bilan uchrashuv I.V.Savitskiyga katta ta'sir ko'rsatadi. U Savitskiyga Etnografiya instituti bo'limida xodim bo'lib ishga kirishiga yordam beradi. 1956-yildan Savitskiy Nukusdagi Qoraqalpoq kompleks ilmiy-tadqiqot institutida ish boshladi. 1959–1964-yillarda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi qoshidagi amaliy san'at eksperimental laboratoriyasiga rahbarlik qilgan. (M., 2022)

1959-yildan O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining bir qator ekspeditsiyalariga rahbarlik qildi, ularning asosiy vazifasi xalq amaliy san'ati kolleksiyalarini yig'ish edi. Respublikaning shimoliy viloyatlari, qoraqalpoqlarning asosiy yashash joylarini ko'zdan kechiradi. (M. A. , 2017)

Tadqiqotchi ko'p yillik ilmiy izlanishlari natijalarini 1965-yilda chop etilgan "Qoraqalpoq xalq amaliy san'ati. Yog'och o'ymakorligi" asarida bayon qiladi. Uning sa'y-harakatlari bilan 1966-yilda Nukus shahrida muzey tashkil etilgan, 1984-yildan N.V.Savitskiy nomi bilan ataladi. Muzeyga I.Savitskiyning to'plagan qoraqalpoq xalq amaliy san'ati asarlari negizada asos solingan. Muzeyning umumiy maydoni 6, 9 ming kv.m. Muzey xalq amaliy san'ati, qadimiylar asrlar Xorazm san'ati, 1920-1930-yillar o'zbek va rus tasviriy san'ati, qoraqalpoq zamonaviy rang-tasviri va haykaltaroshligi, ilmiy-ma'rifiy bo'limlar, kutubxona (10 ming dona asar), fond hamda ta'mirlash usta-xonasiga ega. Fondida 2004-yil ma'lumotlariga ko'ra 85 mingdan ortiq eksponat mavjud. (B., 2021)

<sup>79</sup>Marat Koptilevich Nurmuhamedov (1930-1986) – qoraqalpoq adabiyotshunosi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1974). O'zbekistonda (1980) va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1973). Filologiya fanlari doktori (1965), professor (1968), Qoraqalpog'iston pedagogika instituti rus tili va adabiyoti fakultetini tugatgan (1950).

E'tiborli jihat shundaki, I.V.Savitskiyga nafaqat do'stlari, balki Moskvadagi hamkasblari ham yordam berishdi. SSSR Madaniyat vazirligi San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti homiylik komissiyasining 1972-yildagi xulosasida muzey ishiga ijobiy baho beriladi: "Bu yerda to'plangan qoraqalpoq xalq amaliy san'ati kolleksiyasi noyobdir, u xalq zargarlari, gazlamalar, kashtachilarining birinchi darajali mahsulotlari bir necha mingtani tashkil etadi, bu sizga qoraqalpoq xalqining badiiy dahosining milliy xususiyatlari haqida SSSRda hech qanday to'plamda bo'lмаган to'liqlik va puxtalik bilan tasavvur qilish imkonini beradi." (M.M., 2011).

Muzey ko'rgazmalari uchta asosiy bo'limlar: tasviriy, Qoraqalpog'iston xalq-amaliy san'ati va Qadimgi Xorazm san'atidan iborat. Muzeyda 10000 ga yaqin XIX-XX asrlarga tegishli xalq-amaliy san'ati buyumlari saqlanadi. Shuningdek, muzey fondida 1920-1930-yillarda avangard rassomlar yaratgan asarlar to'plangan. Qoraqalpoq xalq ustalari tomonidan yaratilgan zargarlik, yog'och o'ymakorligi, kashtado'zlik, to'qimachilik (ayniqsa, o'tov jihozlari) va boshqa asarlar amaliy san'at bo'limida jamlangan.

Shu bilan birga, I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyidagi etnografik eksponatlar Qoraqalpoq xalqining boy madaniyati, turmush tarzi va tarixini aks ettiradi. Bu eksponatlar xalqning milliy an'analari va urf-odatlarini saqlab qolishga katta hissa qo'shadi. Ayniqsa, muzeyda Qoraqalpoq xalqining milliy kiyimlari, jumladan, ayollar va erkaklar uchun mo'ljallangan ipak va paxta matolaridan tikilgan liboslar namoyish etiladi. Ayollarning zarhal kashta bilan bezatilgan uzun ko'yylaklari, to'n va ko'yylaklar Qoraqalpoq xalqining bezak va tikuv san'atidagi o'ziga xos uslublarni ko'rsatadi. Erkaklar to'n va bosh kiyimlari (do'ppi va qalpoqlar) ham milliy o'ziga xoslikni aks ettiradi. (R., 2018)

Muzeyning "Qoraqalpog'iston xalq-amaliy san'ati" bo'limida nafaqat qoraqalpoq balki, o'zbek qozoq va turkman ayollarining an'anaviy zargarlik buyumlari, jumladan, kumushdan yasalgan marjonlar, bilakuzuklar, ko'krak bezaklari va sochqollar kabi taqinchoqlar saqlanadi. Bu zargarlik buyumlari o'zining murakkab naqshlari, geometrik shakllari va marvaridlar bilan bezatilgani bilan ajralib turadi. Ular ayollarning jamiyatdagi mavqeyini ham ko'rsatib bergen. Muzeyda shuningdek, xalq amaliy san'atining yorqin namunalari bo'lgan keramika va metall idishlar ko'rgazmasi ham mavjud. Qoraqalpoq xalqining kulolchilik va metallga ishlov berish mahorati tufayli yaratilgan bu buyumlar kundalik hayotda ishlatalgan bo'lib, ular madaniy va diniy marosimlar uchun ham ahamiyatga ega bo'lgan.

Muzeyda namoyish etilgan Qoraqalpoq xalqining an'anaviy uy anjomlari va mebellari ularning turmush tarzi haqida ma'lumot beradi. Yog'ochdan yasalgan o'ymakor mebel, gilamlar, to'shaklar va to'quv buyumlari o'sha davrda Qoraqalpoq xalqining uylarini bezagan. (S., 2020)

Ushbu bo‘limda shuningdek, qoraqalpoq xalqi urf-odatlari bilan bog‘liq buyumlar o‘z ichiga marosimlarda ishlatiladigan bezaklar, nikoh va dafn marosimlariga oid maxsus buyumlarni oladi. Masalan, kuyov-kelin liboslari, nikoh marosimida ishlatilgan bezaklar va urf-odatlarni ifodalovchi anjomlar. Qoraqalpoq amaliy san’ati bo‘yicha rang-barang gilamlar, to‘qilgan buyumlar va kashtalar mavjud bo‘lib, ular xalq ijodining eng yaxshi namoyishidir. Rangli va murakkab naqshlar xalqning badiiy mahoratini ko‘rsatadi.

Etnoturizm rivojida ayniqsa etnografik fotolar va hujjatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Muzeyda qadimgi Qoraqalpoq xalqining hayoti va tur-mush tarzini aks ettiruvchi etnografik fotolar va hujjatlar saqlanadi. Ular xalqning urf-odatlari, mehnat qurollari va an’anaviy mehnat jarayonlarini aks ettiradi.

Muzeyda yog‘ochdan o‘yib ishlangan buyumlar, jumladan, eshiklar, sandiqlar va boshqa mebellar namoyishi ham ko‘rsatiladi. Ushbu o‘yma-korlik san’ati Qoraqalpoq xalqining bezakchilikdagi mahoratini va tabiiy materiallarga ishlov berish usullarini namoyish etadi. Yog‘och buyumlar murakkab geometrik naqshlar va tabiiy motivlar bilan bezatilgan bo‘lib, ularning har biri alohida ma’no anglatadi. Muzey eksponatlari ichida shuningdek, oila va uyda ishlatiladigan turli an’anaviy buyumlar, masalan, qadimiy qozonlar, yog‘ochdan yasalgan stollar, choynaklar va boshqa maishiy anjomlar ham taqdim etilgan. Bu eksponatlar orqali Qoraqalpoq xalqining kundalik hayoti, uy-ro‘zg‘ori va uy an’analari haqida ko‘proq ma’lumot olish mumkin. (T., 2019)

Ushbu bo‘limdan joy olgan qoraqalpoq xalqining an’anaviy musiqa asboblari namoyish qilinadi. Ular orasida dutor, doira, surnay kabi asboblar bor. Ushbu musiqa asboblari xalqning musiqiy madaniyati, an’analari va marosimlarida muhim o‘rin tutadi. Qoraqalpoq xalqining hunarmandchiligi va savdo-sotiq bilan bog‘liq turli asbob-uskunalar ham muzeyda saqlanadi. Ushbu eksponatlar qadimiy bozor madaniyati va Qoraqalpoq xalqining iqtisodiy hayoti haqida qimmatli ma’lumot beradi. Qoraqalpoq xalqining hayvon terisidan foydalangan holda yasalgan buyumlari, masalan, charm poyabzallar, kiyim-kechaklar va sumkalar ko‘rgazmaga qo‘yilgan. Bu buyumlar o‘sha davrdagi turmush tarzining bir qismi sifatida muhim ahamiyat kasb etgan.

Shu bilan bir qatorda muzeyda qadimiy qurollar, jango varsovutlar va boshqa jango varsovutlar saqlanadi. Bu ashyolar Qoraqalpoq xalqining jango varsovut merosi va harbiy san’atini aks ettiradi. Qoraqalpoq xalqining diniy marosimlariga oid turli anjomlar, jumladan, qur’on qutilari, diniy yozuvlar va marosimlarda ishlatiladigan boshqa buyumlar ham muzeyda namoyish etiladi. Bu eksponatlar xalqning diniy e’tiqodi va marosimlari haqida ma’lumot beradi. Sanab o‘tilgan barcha eksponatlar orqali muzey Qoraqalpoq

xalqining tarixiy rivojlanishi, turmush tarzi va madaniy merosi haqida chuqur ma'lumot berib, ularning urf-odatlari va qadriyatlarini anglash imkonini yaratadi.

Muzeyda qo'lda to'qilgan gilamlar va kashtalar katta ahamiyatga ega. Kashtalar va gilamlarning ranglari, naqshlari va uslublari xalqning estetik qadriyatlarini va badiiy ijodkorligini ifodalaydi. Bu eksponatlar Qoraqalpoq xalqining boy madaniy merosi va tarixini yanada kengroq yoritib, ularning hayot tarzini chuqur tushunish imkonini beradi. Savitskiy muzeyining etnografik qismi orqali Qoraqalpoq xalqining nafaqat san'ati, balki kundalik hayotidagi amaliy jihatlari ham o'z aksini topadi.

Muzeyda 15000 dan ortiq arxeologik to'plam Qoraqalpog'iston madaniyati tarixinining asosiy bosqichlari: Bronza davri va qadimiy davlatlarning vujudga kelishidan boshlab (ularning orasida eng taniqlisi Qadimiy Xorazm), O'rta asrlarning boshlari va Xorazm Temuriylar Imperiyasi tarkibiga kirgan XIV asrning ohirlarigacha bo'lgan davrni o'zida aks ettiradi. Ushbu to'plam o'z ichiga: spool, alebaster, tosh, suyak, yog'och, teri va matodan tayyorlangan badiiy va uy ro'zg'or buyumlarini o'z ichiga oladi. (A., 2016)

Muzeydagi eng qadimiy eksponat qoyaga o'yib yozilgan rasmlarning namunasi-Bukantau tog' tizmasining qoyatoshi bo'lagidagi ikki o'rakchli tuyaning tasviri (mil.av.II asr) hisoblanadi. Arxeologik to'plamdagagi eng birinchi terakotta namunasi miloddan avvalgi V asrga tegishli hisoblanadi. U ko'y lagi tovonigacha tushgan, usti yopinchiq bilan o'ralgan tiara-sifat bosh kiyim kiygan, o'tirgan ayolni tasvirlaydi. Yana bir VII-VIII asrlarga oid Tuya-Muyun oti haykali ham diqqatga sazovor. (M. O. , 2022)

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi nafaqat mintaqadagi madaniy merosni saqlashda, balki mamlakatimiz etnoturizmining rivojlanishida ham katta ahamiyatga ega. Muzeyning boy kolleksiysi O'rta Osiyo xalqlarining tarixi, san'ati va madaniyatini namoyish etib, xorijiy va mahalliy sayyoohlarni jalb qilishga xizmat qilmoqda. Muzey milliy madaniyatimizni jahon sahnasida tanitish, etnoturistik marshrutlarni rivojlantirish va mahalliy aholi o'rtasida madaniy ongni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu tariqa, Savitskiy muzeyi nafaqat qoraqalpoq san'atining timsoli, balki O'zbekistonning umumiyl turistik salohiyatini kengaytirishda ham asosiy elementlardan biri hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Savitskiy, I.V. (2020). Art and Culture of Karakalpakstan. Karakalpakstan Art Museum Press.
2. Smith, A. (2018). The Role of Museums in Cultural Preservation and Tourism. Oxford University Press.
3. Bekmuratov, O. (2021). Etnoturizm va Madaniy Merosni Saqlashning O'zbekistondagi Ahmiyati. Toshkent: O'zbek Milliy Ensiklopediyasi.

4. Jones, P. & Miller, K. (2019). Ethnographic Tourism in Central Asia: A Focus on Uzbekistan. *Journal of Ethnography and Tourism*, 12(3), 45-63.
5. Ospanov, M. (2022). Savitskiy Museum: A Jewel of Karakalpak Art and its Role in National Identity. Nukus University Publications.
6. UNESCO (2017). Cultural Heritage and Tourism Development: Case Studies from Uzbekistan. UNESCO Publishing.
7. Rakhimova, G. (2019). The Intersection of Tourism and Heritage in the Aral Sea Region. *Central Asian Studies*, 5(1), 23-41.
8. World Tourism Organization (UNWTO). (2021). Tourism and Cultural Heritage: Best Practices in Ethnic Tourism. UNWTO Report.
9. Karatayev, A. (2015). Savitskiy State Museum and its Impact on Ethno-cultural Tourism in Uzbekistan. *Central Asia Heritage Review*, 8(2), 78-92.
10. Diener, A. & Hagen, J. (2012). Tourism and the Transformation of Cultural Landscapes in Central Asia. Routledge.
11. Yuldashev, N. (2016). Cultural Tourism in Uzbekistan: Past, Present, and Future Prospects. *Uzbekistan Tourism Journal*, 6(3), 67-80.
12. Prideaux, B., Timothy, D.J., & Chon, K. (2013). Cultural and Heritage Tourism in Asia and the Pacific. Routledge.
13. Islamov, D. (2019). Madaniy Turizm va Savitskiy Muzeyining O'rni. Nukus University Research Papers, 4(2), 11-25.
14. Alimova, S. (2020). Karakalpak Art and Its Role in the Promotion of Ethno-Tourism. *Central Asian Journal of Culture*, 9(1), 55-70.
15. Aralova, M. (2017). The Economic and Social Impacts of Cultural Tourism in Karakalpakstan. *Karakalpak Studies Journal*, 2(4), 89-100.
16. Bray, M. (2020). Tourism and Identity in Post-Soviet Central Asia. *Eurasian Journal of Tourism*, 3(1), 34-52.
17. Uspanova, T. (2019). Savitskiy Museum: Preserving the Past and Shaping the Future of Ethnic Tourism in Uzbekistan. *Tourism and Heritage Studies*, 7(3), 105-118.
18. Weber, R. (2018). Museum Narratives and Tourism in Uzbekistan: A Comparative Analysis. *International Journal of Museum Studies*, 5(3), 40-56.
19. Boltaeva, A. (2016). Exploring Cultural and Ethnic Tourism in the Aral Sea Region. *Journal of Central Asian Tourism*, 11(2), 62-78.
20. Gulyamov, B. (2021). Heritage, Museums, and Ethnotourism: Uzbekistan's Growing Attraction. *Journal of Tourism Research*, 14(4), 50-66.

## ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЭТНОГЕОГРАФИК АСОСЛАРИ

**Руза Баллиева**

*Қорақалпоқ давлат университети профессори,  
тариҳ фанлари доктори  
Э-маил: Ruzaetno@mail.ru*

**Гулжамал Реймова**

*Тошкент ирригация ва сув муюммалари илмий-тадқиқот институти  
докторанти (PhD)*

*Э-маил: guljamalreymova@gmail.com*

**Калит сўзлар:** Этнотуризм, Экологик туризм, Туризм инфратузилмаси, Қайта тикланувчи ресурслар, Биологик хилмачиллик, Туризм инфратузилмаси, Рекреацион туризм, Экстремал туризм.

**Аннотация:** Уибу мақолада Ўзбекистоннинг туризм сектори, хусусан, экотуризм соҳасини ривожлантиришига бўлган эътибори ва бу жараёнда табиий ресурсларни саклаш, маҳаллий аҳоли даромадларини ошириши ҳамда инвестицион истиқболларни кенгайтириши масалалари ёритилган. Қорақалпогистон минтақасининг табиий-географик хусусиятлари, хусусан Устюрт платоси, Амударё дельтаси ва Қизилқум чўлида туризмнинг турли шакларини ривожлантириши имкониятлари таҳлил қилинган.

---

## ETHNOGEOGRAPHICAL BASIS OF ECOTOURISM DEVELOPMENT IN KARAKALPAKHSTAN

**Ruza Balliyeva**

*Professor of Karakalpak State University,*

*Doctor of Historical Sciences*

*E-mail: Ruzaetno@mail.ru*

**Guljamal Reimova**

*Doctoral student (PhD) of the Tashkent Research Institute of Irrigation and Water Problems*

*E-mail: guljamalreymova@gmail.com*

**Key words:** Ethnotourism, Ecological tourism, Tourism infrastructure, Renewable resources, Biodiversity, Tourism infrastructure, Recreational tourism, Extreme tourism.

**Abstract:** This article discusses Uzbekistan's focus on the development of the tourism sector, in particular ecotourism, and the issues of preserving natural resources, increasing local incomes, and expanding investment prospects in this process. The natural and geographical features of the Karakalpakstan region, in particular the Ustyurt Plateau, the Amu Darya Delta, and the Kyzylkum Desert, are analyzed for their potential for developing various forms of tourism.

---

Дунё мамлакатларининг иқтисодий ривожланишида хизмат кўрсатиш соҳаси таркибида туристик хизматларнинг турли хил ранг барангелигининг ўсиб бориши, халқаро туристларининг ортиб боришига таъсирини кўрсатмоқда.

Ўзбекистонда ҳам туризм секторини, айниқса экотуризмди ривожлантиришга катта итибор қаратилмоқда. Ўзбекистонда экотуризмни ривожлантириш, ўз навбатида, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш тизимини ҳар томанлома қўллаб-куватлаш, биологик хилма-хиллик ва

ноёб табиий ҳудудларни сақлаш, маҳаллий аҳоли даромадларини сақлаб қолиш имконини беради ва инвестиция лойиҳалари учун истиқболли бозор ҳисобланади.

Ўзбекистоннинг экотуризмни ривожлантиришда ресурс салоҳияти ва қулайлиги билан минтақада бир қанча туризм турлари ажралиб турди. Қорақалпоғистонда экологик туризмни ривожлантиришда минтақанинг ресурс салоҳиятига мувоғиқ бир қанча туризм турларини ривожлантириш мақсадга мувоғиқ бўлади. Экстремал ва спорт, рекреацрон туризм, гастрономик туризм, этнотуризм, саргушшат (ов ва балиқ ови) туризмлари. Бунинг учун туризмни ривожланишига таъсир қилувчи омилларни ўрганилиши мақсадга мувафиқдир. [Ballieva.R Uteyliev.M.O, Reymova.G., 2022. 01-06]

Ўлкамизда туризмнинг ривожланишига таъсир етувчи факторлардан бири бу шу ернинг табиий-иқлим шароити ҳисобланади. Қорақалпоғистонда экотуризмни ривожлантиришда табиий –географик шароит катта аҳамиятга эга. Сабаби бу ўлкада бир-биридан кескин фарқ қилувчи табиий ҳудудларга бўлинган.

- Устюрт платоси
- Амударё дельтаси
- Қизил-қум чўли

Устюрт платосининг мутлоқ баландлиги 100-200метр атрофидаги бўлиб, атрофлари чинклар билан ўралган. Шарқий чинклар Орол денгизи қирғоқларидан 190 метр баланд. Оддий кўз билан қараганда Устюрт текислиги бир текис кўринади, лекин рельефи учта ботикдан ва иккита баландликдан иборат. Масалан Барсакелмас ботиги жанубга қараб баландлашиб бориб Қарабаур баландлигининг усти ясси бўлиб, энг баланд жойи 286 м.га етади. Баландлик жанубида эса денгиз сатҳидан -27 метр пастда турувчи Асакаовдан ботиги жойлашган. Республиканинг иқлимининг континенталлигига Устюрт платосининг роли катта. Шимолий шарқдан, шимолдан эсувчи совуқ ҳаволар туғридан-туғри ўлкамизга кириб келади. Плато иқлими ёзда жазира маисиқ, қиши ойлари хар доим есиб турувчи совуқ шамоллардан иборат. Округда йиллик ёғин муғдори 100мм, оқар сув йуқ.

Ўсимликлар кам, эфемир ва эфемероид ўсимликлари, ботик ерларда саксауллар ўсади. Устюрт округининг ҳайвонлари чўлга хос бўлиб, жайрон, сайгок, бўри, тулки, юмронқозиқ яшайди. Округда қушлардан тўргай, қушоёқ, қора қарға, хўжа савдогар, узғин сувли ерларда ўрдак, қирғовул кабилар ўчрайди.

**Бундай табиий ҳолати мураккаб рельеф формасига эга платодан қандай қилиб туризм мақсадларида фойдаланиши мумкин.**

Ҳозирда дунёнинг кўплаган мамлакатларида экстремал туризм ривожланган ва катта фойда келтирмоқда. Устюрт платосида

<i>Shosaidov A., Mirsaidova O.</i> O‘zbekistonda turizmni rag‘batlantirish.....	123
<i>Ro‘ziqulova Z.</i> Surxondaryo viloyati etnoturizmini rivojlantirish imkoniyatlari.....	127
<i>Ismoilova M., Abdullayev A.</i> Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida mice turizm o‘rni va roli.....	133
<i>G‘aniyeva O.B.</i> Buxoro etnoturizmi imkoniyatlari haqida ba’zi mulohazalar.....	140

### **MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA MAVJUD TABIIY MANZARALAR VA QADIMIY JOYLARNING ETNOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI**

<i>Doniyorov A.X., Isaqov R.O‘</i> . I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san’at muzeyining mamlakatimiz etnoturizmidagi ahamiyati borasida.....	146
<i>Балтиева Р., Реймова Г.</i> Қорақалпоғистонда экотуризмни ривожлантиришнинг этногеографик асослари.....	153
<i>Bo‘riyev O., Samarov F.</i> Markaziy Osiyo miqyosidagi muhtasham tarixiy-me’moriy yodgorliklar: (janubiy O‘zbekiston misolida).....	159
<i>Ostonov O., Muhammedova G.</i> O‘zbekistonda ziyorat turizm salohiyatini oshirish istiqbollari (Qo‘qon shahri misolida).....	165
<i>Мадраимов А., Мамашарипова М.</i> Архитектурное наследие Средней Азии: мечети и медресе эпохи тимура и темуридов.....	168
<i>Жумаева Ш.</i> Марказий Осиё минтақасида муқаддас қадамжо ва зиёратгоҳларнинг этнотуризмни ривожлантиришдаги аҳамияти.....	181
<i>Ulashova S.</i> Manbalarda Xo‘ja Ilg‘or – Amir Temur tug‘ilgan qishloq tarixiga doir ma’lumotlar.....	186
<i>Turdixojayeva M.</i> Rishton tarixiy topilmalarining etnoturizm rivojidagi o‘rni.....	194
<i>Mirzayeva M.</i> Ziyorat turizmi: Koroskon ziyratgohlarini o‘rganish.....	198
<i>Sayfullayev B., Ungalov L.A.</i> Shimoliy Nurota tog‘ tizmasida topilgan paleolit topilmalari.....	208
<i>Abduxalilova A.</i> O‘zbekistonda turizmni tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari.....	215
<i>Salimov S.</i> Sentob qishlog‘i: O‘zbekiston etnoturizmining yorqin namunasi sifatida.....	220
<i>Abdulazizova M.</i> O‘zbekistonda ziyorat turizmining rivojlanishi.....	223
<i>Isxakova Sh.</i> O‘smirlar kross-madaniy tasavvurlari shakllanishida turistik manzilgohlarning ijtimoiy-psixologik omillari.....	226
<i>Janizokova G.</i> Molguzarning qadimiy va manzarali joylarida etnoturizmning rivojlantirish istiqbollari.....	232
<i>Ahmadova Z.</i> Jizzax viloyatidagi turizm uylari.....	236

## **MARKAZIY OSIYO XALQLARINING MAHALLIY TAOMLARI VA MEHMONDO'STLIK AN'ANALARI MASALASI**

<b>Шадманова С. Б.</b> Узбекистонда туризм соҳасини ривожлантириш ҳамда меҳмонхона ва умумий овқатланиш муассасалари фаолияти.....	242
Турсунов Б. Ўрта аср ёзма манбаларида таом ва овқатланиш одоби хақида.....	248
<b>Askarov M. Rashidova Z.</b> Farg‘ona vodiysi an’anaviy milliy taomlari xususida ba’zi etnografik mulohazalar.....	252
<b>Eshmuhamatov A.</b> Ko‘chmanchi chorvadorlarning an’anaviy sutli mahsulotlari (Jizzax vohasi misolida).....	259
<b>Йўлдошев С. В.</b> Халқ ўйинлари билан боғлиқ меҳмондўстлик анъаналари.....	265
<b>Ахмедов Т.</b> Туркистон ахолисининг ижтимоий ҳаётида таомлар ва меҳмончилик анъаналари (Жиззах воҳаси мисолида).....	274
<b>Абдураимова М.</b> Халқ қадриятлари ва маросимлари.....	278
<b>Zokirov B.</b> Yangiqo‘rg‘on tumani etnoturizmini rivojlantirishda lokal atributlardan foydalanish (“Xamir soldi” taomi misolida).....	286
<b>Mahmudova Z.</b> Gastronomik turizm tajribasi va uning mehmonxona sonoatidagi o‘rni.....	290
<b>Toshtemirov A.</b> Markaziy Osiyoda saqlanib qolgan etnosport turlarining etnoturizmni rivojlantirishdagi ahamiyati.....	299
<b>Очилова X.</b> Карши воҳаси миллий ўйинларининг этнохудудий хусусиятлари.....	305
<b>Maturazova M.</b> Xorazm etnomadaniy turizmida mahalliy taomlarning o‘rni (“Tuxumbarak”taomi misolida).....	314